


MATEMATIKA

YOSH
IQTIDOR
EGALARİ
UCHUN



G‘afforov Sardor
Jumanazarov Xoshim
Mirzayev Nodir
Ahadov Abduqodir

MATEMATIKA II qism

Buyurtma berish uchun quyidagilarga murojaat qiling:



(99) 968 44 00



@IDC_books

Mundarija:

1.	Sonli va harfli ifodalar	4
2.	Tenglamalar yechish	9
3.	Masalalarni tenglamalar tuzib yechish(1-qism)	13
4.	Masalalarni tenglamalar tuzib yechish(2-qism)	19
5.	Tenglamalar sistemasi	25
6.	Masalalarni tenglamalar sistemasi tuzib yechish	31
7.	Geometrik shakllar perimetri va yuzi	37
8.	To‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat	50
9.	Murakkab shakllarning perimetri va yuzi	56
10.	To‘g‘ri burchakli parallelepiped va kub(1-qism)	76
11.	To‘g‘ri burchakli parallelepiped va kub(2-qism)	84
12.	Bo‘linish belgilari(1-qism)	93
13.	Bo‘linish belgilari(2-qism). Tub va murakkab sonlar	99
14.	Sonni tub ko‘paytuvchilarga ajratish	105
15.	Eng katta umumiy bo‘luvchi(EKUB)	110
16.	Eng kichik umumiy karrali(EKUK)	116
17.	Sonning berilgan qismini topish	123
18.	Sonning berilgan foizini topish	131

”Yosh iqtidor egalar uchun” Matematika kitoblarimizni takrorlash uchun testlarni ushbu QR-kod orqali olishingiz mumkin.



3. MASALALARNI TENGLAMALAR TUZIB YECHISH(1-QISM).

- 17** Birinchi usta bir soatda ikkinchi ustadan 6 ta ko‘p yog‘ochni bo‘yaydi. Agar ular birgalikda 4 soatda 104 ta yog‘ochni bo‘yasa, ikkinchi usta bir soatda nechta yog‘ochni bo‘yaydi?
- 18** Uchta sonning yig‘indisi 300 ga teng. Agar ikkinchi son birinchi sondan 2 marta katta, uchinchi son esa birinchi sondan 3 marta katta bo‘lsa, bu sonlarni toping.
- 19** Uchta kitob javonida jami 144 ta kitob bor. Birinchi javonda ikkinchi javondagidan 2 marta ko‘p, uchinchi javonda esa birinchi javondagidan 3 marta ko‘p kitob bor. Har bir javonda nechtadan kitob bor?
- 20** Uchta idishda jami 178 litr suv bor. Birinchi idishdagi suv ikkinchi idishdagi suvdan 11 litr kam, uchinchi idishdagi suv esa birinchi idishdagi suvdan 17 litr ko‘p bo‘lsa, har bir idishda qanchadan suv bor?
- 21** Uchta idishda jami 260 litr suv bor. Birinchi idishdagi suv ikkinchi idishdagi suvdan 30 litr kam, uchinchi idishdagi suv esa ikkinchi idishdagi suvdan 20 litr ko‘p bo‘lsa, har bir idishda qanchadan suv bor?
- 22** Uchta idishda jami 380 litr suv bor. Birinchi idishdagi suv ikkinchi idishdagi suvdan 4 marta kam, uchinchi idishdagi suv esa birinchi idishdagi suvdan 5 marta ko‘p bo‘lsa, har bir idishda qanchadan suv bor?
- 23** Uchta tokchada jami 424 ta kitob bor. Birinchi tokchada bir nechta, ikkinchisida esa undan 14 ta ko‘p kitob bor. Agar uchinchi tokchada 60 ta kitob bo‘lsa, birinchi va ikkinchi tokchada nechtadan kitob bor?
- 24** Fermada otlar, sigirlar va qo‘ylar boqiladi. Ularning umumiyligi soni 217 ta. Agar fermadagi otlar qo‘ylardan 2 marta kam, qo‘ylar esa sigirlardan 2 marta kam bo‘lsa, fermada nechta qo‘y boqiladi?
- 25** Anvar, Sobir, Begzodda jami 111000 so‘m pul bor. Anvarning puli Begzodning pulidan 3 marta kam, Begzodning puli esa Sobirnikidan 6000 so‘m kam. Begzodda necha so‘m pul bor?
- 26** Korxona uch yilda 141 ta mashina ishlab chiqardi. Ikkinci yilda birinchi yildagiga qaraganda 5 marta ko‘p, uchinchi yilda esa ikkinchi yildagidan 20 ta ko‘p mashina ishlab chiqardi. Korxona ikkinchi yilda nechta mashina ishlab chiqargan?
- 27** Ikkita shkafda jami 154 ta daftар bor. Birinchi shkafdan 8 ta daftар olib ikkinchi shkafga qo‘ysa, birinchi shkafdagи daftarlar soni ikkinchi shkafdagidan 6 marta kam bo‘lib qoladi. Birinchi shkafda nechta daftар bor?
- 28** Nozim bozordan 700000 so‘m pulga birgalikdagi og‘irligi 30 kg bo‘lgan olma va nok sotib oldi. U sotib olgan olmaning og‘irligi ham, narxi ham noknikidan ikki marta kam. Nozim necha so‘m pulga nok sotib olgan?

6. MASALALARINI TENGLAMALAR SISTEMASI TUZIB YECHISH


- 12** Fermadagi tovuq va sigirlarning boshlari soni 23 ta, oyoqlari soni esa 58 ta. Fermada nechta sigir va nechta tovuq bor?
- 13** Hayvonot bog'ida bir o'rkachli va ikki o'rkachli tuyalar bor. Tuyalarning umumiy soni 20 ta, o'rkachlarining umumiy soni esa 34 ta. Hayvonot bog'ida nechta bir o'rkachli tuya bor?
- 14** Dehqonboyning qo'y va tovuqlari bor. Ularning boshlari soni 60 ta, oyoqlari soni esa 160 ta. Dehqonboyning tovuqlari soni qo'ylari sonidan nechta ko'p?
- 15** 3 ta qalam va 4 ta ruchkaning umumiy narxi 5300 so'm. 7 ta qalam va 2 ta ruchkaning umumiy narxi esa 6500 so'm bo'lsa, qalamning narxini toping.
- 16** Aziz 200000 so'mni 2000 so'mlik va 5000 so'mlik bo'lgan kupyuralarga almashtirdi. Agar jami kupyuralar soni 52 ta bo'lsa, ulardan nechtasi 5000 so'mlik bo'lgan?
- 17** Do'konda 4 kg olma, 3 kg anor va 2 kg bananning umumiy narxi 125000 so'm. 3 kg olma, 4 kg anor va 5 kg bananning umumiy narxi esa 190000 so'm. 1 kg olma, 1 kg anor va 1 kg bananning umumiy narxini toping.
- 18** 4 ta tarvuz, 7 ta qovun va 2 ta handalakning birgalikdagi og'irligi 73 kg. 1 ta tarvuz, 3 ta qovun va 3 ta handalakning birgalikdagi og'irligi esa 32 kg. 1 ta tarvuz, 2 ta qovun va 1 ta handalakning birgalikdagi og'irligini toping.
- 19** 2 ta badiiy kitob, 4 ta umumiy daftар va 1 ta yozuv daftarlarning umumiy qalinligi 23 cm. 1 ta badiiy kitob, 2 ta umumiy daftар va 5 ta yozuv daftarning umumiy qalinligi esa 16 cm. 1 ta badiiy kitob, 2 ta umumiy daftар va 2 ta yozuv daftarning umumiy qalinligini toping.
- 20** Nodir va Anvarning yoshlarining yig'indisi 45, Anvar va Sobirning yoshlarining yig'indisi 50, Nodir va Sobirning yoshlarining yig'indisi esa 37 ga teng. Nodir, Anvar va Sobirning yoshlarini toping.
- 21** Qovun va tarvuzning birgalikdagi og'irligi 38 kg, tarvuz va handalakning birgalikdagi og'irligi 25 kg, handalak va qovunning birgalikdagi og'irligi esa 17 kg. Har bir poliz ekinlarining og'irliliklarini aniqlang.

22-26 Masalalarini tenglamalar tuzib yeching.


- 22** Bir son ikkinchisidan 790 ga katta. Katta sonni kichigiga bo'lganda, bo'linmada 14, qoldiqda esa 10 hosil bo'ladi. Shu sonlarni toping.
- 23** Bir son ikkinchisidan 235 ga katta. Katta sonni kichigiga bo'lganda, bo'linmada 16, qoldiqda esa 10 hosil bo'ladi. Shu sonlarni toping.
- 24** Alisher 5 ta daftar sotib olsa, uning 3000 so'm puli ortib qoladi, 11 ta daftar sotib olishga esa 4200 so'm yetmaydi. Alisherda necha so'm pul bor va daftarning narxi necha so'm?

7. GEOMETRIK SHAKLLAR PERIMETRI VA YUZI.


- 7** Quyida berilgan rasmdagi figuraning perimetрини топинг:




- 8** Quyida berilgan rasmdagi figuraning perimetрини топинг:



- 9** Agar har bir katakchalarning томонлари 2 cm dan bo'lsa, quyida berilgan rasmdagi bo'yagan figuraning perimetрини топинг:



- 10** Agar har bir katakchalarning томонлари 2 cm dan bo'lsa, quyida berilgan rasmdagi bo'yagan figuraning perimetрини топинг:



- 11** Jadvalni to'ldiring:

a	3 sm		7 sm
b	4 sm	6 sm	
P		22 sm	36 sm

12 To'g'ri to'rtburchakning eni 15 cm va bo'yи 10 cm bo'lsa, uning perimetрини топинг.


13 Kvadratning томони 8 cm bo'lsa, uning perimetрини топинг.

14 To'g'ri to'rtburchakning perimetри 42 cm. Agar uning bo'yи 12 cm bo'lsa, enimi топинг.

15 Kvadratning perimetri 40 cm bo'lsa, uning томони узунligини топинг.

7. GEOMETRIK SHAKLLAR PERIMETRI VA YUZI.


24 Rasmdagagi kvadratning yuzini toping:




25 To'g'ri to'rtburchakning eni 15 cm va bo'yisi 10 cm bo'lsa, uning yuzini toping.

26 Kvadratning tomoni 8 cm bo'lsa, uning yuzini toping.

27 Rasmdagagi katta uchburchakning perimetrini toping:




28 Nurmuhammad uyining devoriga perimetrlari berilgan uchta kvadrat shaklidagi ramkani rasmdagagi kabi osib qo'ydi. Devor kengligining uzunligi necha cm?




7. GEOMETRIK SHAKLLAR PERIMETRI VA YUZI.


31 Agar A kvadratning tomoni 2 cm bo'lsa, C kvadratning perimetrini toping.



32 Chap tomondagi to'g'ri to'rtburchakka, o'ng tomondagi rangli qog'ozlar yopishtirilmoqda.




Rangli qog'ozlar yopishtirilgandan so'ng, rasmdagi kabi ortiqcha joylari qirqib tashlandi.




Rangli qog'ozning qirqib tashlangan qismlarining yuzlari yig'indisi necha cm^2 ga teng?

9. MURAKKAB SHAKLLARNING PERIMETRI VA YUZI

- 41 Rasmda berilgan MBKN, AXYZ va ZPQD kvadratlarning yuzlari mos ravishda 4 cm^2 , 9 cm^2 va 25 cm^2 . Agar ABCD shakl kvadrat bo'lsa, bo'yalgan soha yuzini toping.




- 42 Quyidagi rasmda berilgan AKLB, BMNC va CPQD kvadratlarning yuzlari mos ravishda 49 cm^2 , 36 cm^2 va 25 cm^2 bo'lsa, AKLMNPQD shaklning perimetrini toping.




9. MURAKKAB SHAKLLARNING PERIMETRI VA YUZI

- 6 Quyidagi rasmda berilgan kichik kvadratlar soni katta kvadratlar sonidan 3 ta ko'p. Agar kvadratlarning umumiy soni 15 ta bo'lsa, "?" o'rnidida turuvchi sonni toping.



- A) 57 cm B) 63 cm C) 54 cm D) 52 cm


- 7 Uy oldidagi tomorqa yuqorida quyidagicha ko'rindi:



Tomorqaning yuzini toping.

- A) 150 m^2 B) 2 sotix 50 m^2 C) 275 m^2 D) 2 sotix 25 m^2

- 8 Yo'lak uzunligi 10 m bo'lib, quyidagi g'isht 29 marta ag'darilib, ma'lum masofani bosib o'tdi. (G'isht 90 gradusga burilganda bir marta ag'dariladi.) Quyidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri?




- A) G'isht oxirida yo'lakning tugash joyida qoladi.
B) G'isht oxirida yo'lakdan 5 cm chiqib ketadi.
C) G'isht oxirida yo'lak tugashidan 5 cm masofada qoladi.
D) G'isht oxirida yo'lakdan 3 cm chiqib ketadi.

11. TO'G'RI BURCHAKLI PARALLELEPIPED VA KUB(2-QISM).


- 15** Suv bilan to'lalidish to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida bo'lib, uning o'chamlari 125 cm, 32 cm va 30 cm. Idishning ostki qismi teshilgan bo'lib, undan suv oqib chiqyapti. Agar suv oqib chiqayotgan joydan soniyasiga 3 litr suv oqib ketsa, idishdagi suv necha soniyada tugaydi?
- 16** Akvarium to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida. Uning balandligi 10 dm, eni va bo'yisi esa mos ravishda 16 dm va 25 dm. Minutiga 20 litr suv quyadigan nasos akvariumni necha minutda to'ldiradi?
- 17** Atir sovun to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida bo'lib, uning o'lchamlari 8 cm, 15 cm va 6 cm. Atir sovundan bir marta foydalanganda, uning hajmi 12 cm^3 kamaysa, atir sovun necha marta foydalanishga yetadi?
- 18** To'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi xonaning eni va bo'yisi mos ravishda 6 m va 5 m, balandligi esa 4 m. Agar 1 m^3 havoning og'irligi 1290 gramm bo'lsa, xonadagi havoning og'irligini toping.
- 19** To'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi yog'och taxtaning qalinligi 3 dm, uzunligi 12 dm va kengligi 2 dm. Agar 1 dm^3 yog'och 500 gramm bo'lsa, taxtaning og'irligi necha kilogramm?

20-23 Mashqlarda berilgan shakllarning hajmlarini aniqlang.


20




22



21




23



11. TO'G'RI BURCHAKLI PARALLELEPIPED VA KUB(2-QISM).

- 7 O'lchamlari 10 cm , 15 cm va 7 cm bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi detalni bo'yash uchun 9100 gramm bo'yoq ishlatildi. Detalning 1 cm^2 sirtini bo'yash uchun necha gramm bo'yoq ishlatalgan?
- 8 O'lchamlari 2 dm , 4 dm va 7 dm bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped to'la sirtini bo'yash uchun 500 gramm bo'yoq kerak. O'lchamlari 5 dm , 7 dm va 10 dm bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped to'la sirtini bo'yash uchun necha gramm bo'yoq kerak bo'ladi?
- 9 Rasmda berilgan akvariumda necha litr suv bor?



- 10 Akvarium to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida bo'lib, uning eni va bo'yisi mos ravishda 64 cm va 25 cm . Akvarium ustki yog'i sathidan 10 cm balandlikkacha suv bilan to'ldirilgan. Agar akvarium balandligi 80 cm bo'lsa, unda necha litr suv bor?
- 11 To'g'ri burchakli parallelepiped asosining yuzi 32 cm^2 va balandligi 6 cm . Parallelepipedning hajmini toping.
- 12 Xona to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida bo'lib, polning yuzi 16 m^2 . Agar xonaning balandligi 4 m bo'lsa, xona hajmini toping.
- 13 Bo'sh akvariumning o'lchamlari rasmda ko'rsatilgan. Agar bu akvarimga 50 litr suv quyilsa, suv sathi balandligi necha cm bo'ladi?

